Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.512.133
FILOLOGIYA

"O'ZBEK TILINING ETIMOLOGIK LUG'ATI"DA TURKIYCHA SO'ZLARDA METATEZA HODISASINING AKS ETISHI

Yashin Kimovich Azizov[a,*], Zaynidin Oltinovich Kurbonov[b]
[a] *Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Oriental universiteti o'qituvchisi*
[b] *Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
✉ yashinbek.uz@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada "O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar)"dan maxsus to'plangan so'zlar misolida turkiy tillardagi metateza (tovushlar o'rin almashinuvi) hodisasi tahlil qilinadi. Misollar undosh-undosh, unli-undosh hamda leksema darajasidagi metateza turlariga ko'ra tasniflanadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, mazkur lug'at metateza hodisasini izchil va maqsadli tarzda emas, balki etimologik izohning yon mahsuli sifatida qayd etadi. Shu bilan birga, tarixan metatezaga uchragan ba'zi so'zlarning metatezaga uchramagan asl ko'rinishi tilning o'zidan (shu jumladan shevalardan) butunlay chiqib ketgan bo'lib, bu metateza hodisasining nafaqat sinxronik, balki diaxronik jihatdan ham ahamiyatga molik ekanligini ko'rsatadi. Xulosada bitta lug'at va bitta til (o'zbek turkiy qatlami) doirasidagi tahlilning cheklanganligi ko'rsatilib, o'zlashma qatlam, tarixiy manbalar va sheva materiallarini qamrab oluvchi metateza korpusini yaratish zarurati asoslanadi.

Kalit so'zlar

metateza, o'zbek tili, turkiy tillar, etimologik lug'at, tarixiy fonetika, diaxroniya, korpus lingvistikasi.

DOI: 10.5281/zenodo.21743604

Kirish

Metateza - so'z tarkibidagi ikki tovush yoki tovushlar ketma-ketligining o'rin almashinuvi natijasida yuzaga keladigan diaxron fonetik jarayon bo'lib, turkiy tillar tarixiy fonetikasida alohida ahamiyatga ega [7; 8]. Bu hodisa artikulyatsion tejamkorlik, bo'g'in strukturasining qayta tashkil topishi va analogiya kabi omillar bilan bog'liq holda o'rganiladi. O'zbek tilshunosligida metateza masalasi S.Mutallibovning 1959-yildagi maqolasidan boshlab qisman yoritilgan bo'lsa-da, hozirgacha mustaqil monografik tadqiqot predmeti bo'lmagan [2, B. 219-228].

Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar)" o'zbek tilining turkiy qatlamiga oid so'zlarning kelib chiqishini izohlovchi yirik leksikografik manba sifatida metateza jarayoni izlarini ham o'zida saqlaydi [1]. Biroq bu izlar lug'atda mustaqil kategoriya sifatida emas, balki alohida so'z maqolalari ichida tarixiy shakllarni izohlash jarayonida tarqoq holda uchraydi. Ushbu maqolaning maqsadi – mazkur lug'atdan maxsus tanlab olingan misollar asosida metateza hodisasining lug'atda qanday va qay darajada aks etganini aniqlash, lug'at qamrab olmagan (ammo tilda mavjud) metateza hollarini ko'rsatish, hamda "nima uchun to'liq bo'lmagan bir manba metateza nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi kerak" degan tabiiy metodologik savolga javob berishdir.

Tadqiqot materiali sifatida Sh. Rahmatullayev lug'atining tegishli maqolalaridan maxsus saralab chiqilgan misollar quyidagi mezonlar asosida tasniflandi:

1) qo'shni undoshlar o'rtasidagi metateza (masalan, rp ↔ pr, lm ↔ ml kabi);

2) uzoq masofali yoki ko'p bosqichli metateza, bunda o'rin almashinuv bir necha ketma-ket fonetik o'zgarish orqali yuzaga keladi;

3) unli-undosh qatnashgan metateza;

4) leksema (so‘z tartibi) darajasidagi metateza, ya’ni ikki mustaqil so‘zning o‘rin almashinuvi natijasida yagona leksema hosil bo‘lishi.

Tasnif natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

№	So‘z va uning metateza jarayoni	Metateza turi
1	beshik tebrat+ar = bekshiktebratar > beshikterbatar > beshiktervatar	Ko‘p bosqichli / uzoq masofali
2	yal+ma = yalma > yamla	Qo‘shni undosh (lm ↔ ml)
3	yar+g‘in = yarg‘in > yag‘rin	Qo‘shni undosh (rg‘ ↔ g‘r)
4	yag‘+mur = yag‘mur > yomg‘ir	Qo‘shni undosh (g‘m ↔ mg‘)
5	yag‘+na+q = yag‘naq > yong‘oq	Qo‘shni undosh (g‘n ↔ ng‘)
6	yat+si+q = yatsiq > yostiq	Qo‘shni undosh (ts ↔ st)
7	(iy+e=iye)+bar = iybar > yibar	Unli–undosh metatezasi
8	(yul+ma=yulma) + la = yulmala > yumlala > yumdala	Qo‘shni undosh, ko‘p bosqichli
9	kirpi+k = kirpik > kiprik	Qo‘shni undosh (rp ↔ pr)
10	taq+ma = taqma > tag‘ma > tamg‘a	Qo‘shni undosh, ko‘p bosqichli
11	telmir > termil	Uzoq masofali (bo‘g‘inlararo)
12	tir+ma+la = tirmala > timrala > timdala	Qo‘shni undosh, ko‘p bosqichli
13	kirpi-tikan > kipritikan > tipratikan	Qo‘shni undosh (rp ↔ pr)
14	tuk+li = tukli > tulki	Qo‘shni undosh (kl ↔ lk)
15	topur+aq = topuraq > topraq > tuproq > turpoq (so‘zlashuvda)	Qo‘shni undosh, ko‘p bosqichli
16	chubra+qa = chubraqa > churbaqa > churvaqa	Qo‘shni undosh (br ↔ rb)
17	eg+si = egsi > eksi > eski	Qo‘shni undosh + jarangsizlanish
18	o‘l+uch+a = o‘lucha > o‘lcha (shevada: o‘chla)	Qo‘shni undosh (lch ↔ chl)
19	u+g+ur+an = uguran > ugran > urgan > o‘rgan	Ko‘p bosqichli / uzoq masofali
20	o‘g‘+ur+i = o‘g‘uri > o‘g‘ri+liq = o‘g‘riliq > o‘g‘irliq	Qo‘shni undosh (g‘r ↔ rg‘)
21	qarg‘ilach > qarlig‘ach > qardig‘ach > qardirg‘ach > qaldirg‘ach > qaldirg‘och	Ko‘p bosqichli / uzoq masofali
22	qar+ma = qarma > qamra	Qo‘shni undosh (rm ↔ mr)
23	qir+g‘u+y = qirg‘uy > qirg‘iy > qiyg‘ir (shevada)	Ko‘p bosqichli / uzoq masofali
24	qo‘n+chi = qo‘nchi > qo‘nshi > qo‘shni	Qo‘shni undosh, ko‘p bosqichli
25	yuv+g‘u+chi = yuvg‘uchi > yuvug‘chi (shevada) > yuvuqchi (shevada)	Undosh–unli aralash tur
26	sat+g‘u+chi = satg‘uchi > satug‘chi > sotuvchi	Undosh–unli aralash tur
27	bod sin > sin bod > sinbod > sinbot > sinbat > sinbät > sumbat	Leksema (so‘z tartibi) darajasidagi metateza

Jadvaldagi misollarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning katta qismi (taxminan 16 ta, 59%) qo‘shni ikki undosh o‘rtasidagi oddiy o‘rin almashinuvga to‘g‘ri keladi (mas., *kirpik > kiprik, tukli > tulki*). Yana bir sezilarli guruhni (6 ta misol, 22%) ko‘p bosqichli yoki bo‘g‘inlararo uzoq masofali metateza tashkil etadi, bunda so‘z bir nechta oraliq shakl orqali o‘zgargan (*telmir > termil; qarg‘ilach > … > qaldirg‘och*). Alohida ajralib turadigan 27-misol — *bod sin > sin bod* — metatezaning so‘z birikmasi yoki qo‘shma so‘z darajasida, ya’ni ikkita mustaqil leksemaning o‘rin almashinuvi natijasida yagona so‘zga aylanishini ko‘rsatadi; bu klassik tovush metatezasidan farqli, sintaktik-leksik xarakterdagi hodisa bo‘lib, alohida nazariy izohni talab qiladi [1].

Muhim jihat shundaki, lug‘atdagi barcha misollarda metateza mustaqil fonetik qonuniyat sifatida emas, balki tegishli so‘zning etimologik izohi ichida, ko‘pincha “shevada”, “so‘zlashuvda” kabi izohlar bilan yon-atrofda tilga olinadi (mas., 15, 23, 25, 26-misollar). Bu – lug‘at tuzuvchisi oldida metateza hodisasini tizimli tasvirlash vazifasi qo‘yilmaganini ko‘rsatadi.

To‘plangan 27 misol o‘zbek tilidagi metateza hodisasining lug‘atda aks etgan qismini tashkil etadi, biroq bu qism hodisaning o‘zini to‘liq qamrab olmaydi. Buni bir qator nazorat misollari yaqqol isbotlaydi.

Jekirma so‘zining sheva shakllarida *jerkima* tarzida talaffuz qilinishi [3, B. 632], *o‘xsha* so‘zining Surxondaryo shevalarida *o‘shqa (o‘shxa)* tarzida talaffuz qilinishi [4, B. 64], *o‘pka* so‘zi ba’zi shevalarda *o‘kpa*, *aylan* so‘zi esa *aynal* tarzida qo‘llanilishi [5, B. 126], *o‘laksa* so‘zining *o‘laska* tarzidagi sheva shakli qayd etilgan [6, B. 201]. Ushbu misollarning barchasi tilshunoslik adabiyotlarida va dialektologik manbalarda aniq qayd etilgan bo‘lsa-da, Rahmatullayev lug‘atining tegishli maqolalarida bu metateza holatlari umuman ko‘rsatilmagan [1].

Bu holat ikki xil sabab bilan izohlanishi mumkin: birinchidan, lug‘at o‘z tabiatiga ko‘ra etimologik (kelib chiqishni izohlovchi) maqsadga qaratilgan bo‘lib, sinxron yoki sheva darajasidagi variativlikni sistemali qayd etish uning vazifasiga kirmaydi; ikkinchidan, metateza — leksikografik amaliyotda alohida belgilanadigan kategoriya emas, shu sababli tuzuvchi diqqatidan chetda qolishi tabiiy.

Yuqoridagi kuzatuv o‘z-o‘zidan tabiiy bir savolni keltirib chiqaradi: agar ko‘pgina metateza holatlari etimologik lug‘atda umuman aks etmagan bo‘lsa, xuddi shu lug‘atni metateza nuqtayi nazaridan tadqiq etishning qanday ilmiy afzalligi bor?

Bu savolga javob metateza hodisasining ikki xil: sinxronik va diaxronik ko‘rinishini farqlashda yotadi. Yuqorida keltirilgan misollar (*jekirma/jerkima, o‘xsha/o‘shqa* va boshqalar) hozirgi kunda ham ikki variant: adabiy (metatezasiz) va sheva (metatezalashgan) – shaklida parallel yashamoqda; bu hali yakunlanmagan, o‘zgaruvchan sinxronik variativlikdir, shu sababli etimologik lug‘at uni qamrab olishga majbur emas – bu vazifa dialektologik lug‘atlar zimmasida.

Ammo *tulki, timdala* va *sumbat* kabi so‘zlar butunlay boshqa turdagi dalildir. *Tulki* so‘zi tarixan *tukli* shaklidan *(tuk+li)* metateza orqali hosil bo‘lgan, biroq bugungi kunda *tukli* shaklining o‘zi na adabiy tilda, na biror o‘zbek shevasida “*tulki”* ma’nosida saqlanib qolmagan. Xuddi shunday, *timdala* so‘zi tarixan *tirmala* > *timrala* zanjiridan kelib chiqqan, biroq *timrala* yoki *tirmala* shakllari hozirgi shevalarda *“timdala”* ma’nosida uchramaydi. *Sumbat* so‘zi esa tarixan ikki mustaqil leksema: *bod sin* > *sin bod* birikuvidan yuzaga kelgan, ammo bu ikki so‘z bugungi tilda alohida-alohida shu ma’noda ishlatilmaydi. Boshqacha aytganda, bu uch misolda metateza natijasida yuzaga kelgan shakl til tizimida yakka-yagona norma sifatida qattiq o‘rnashib qolgan, metatezaga uchramagan asl shakl esa til birligidan (shevalar bilan birga) butunlay chiqib ketgan.

Aynan mana shu – to‘liq lug‘aviylashgan (leksikalashgan) metateza holatlarini qayd etish etimologik lug‘atning tabiiy vazifasidir, chunki etimologik lug‘at hozirgi kunda qo‘llanilayotgan so‘zning tarixiy kelib chiqishini izohlaydi, hali yakunlanmagan sinxronik sheva variantlarini emas. Shu nuqtayi nazardan, Sh.Rahmatullayev lug‘ati metateza hodisasining barcha ko‘rinishlarini emas, balki aynan uning diaxronik, tarixan mustahkamlangan natijalarini qamrab oladi va bu qamrov garchi to‘liq bo‘lmasa-da, tasodifiy emas, balki lug‘atning janr xususiyatidan kelib chiqadigan tabiiy chegaradir. Demak, mazkur lug‘atni metateza nuqtayi nazaridan tadqiq etishning ilmiy afzalligi shundaki, u metatezaning shunchaki o‘tkinchi talaffuz varianti emas, balki til tarixida yangi mustaqil leksema tug‘dirgan chuqur strukturaviy jarayon ekanligini ko‘rsatadigan “qattiq holatlar”ni beradi. Bu esa metateza tadqiqotini ikki qatlamli (ikki bosqichli) korpus modeliga olib keladi: (a) etimologik lug‘atlar va tarixiy manbalar – leksikalashgan, diaxronik jihatdan mustahkamlangan metateza holatlarini; (b) sheva lug‘atlari – hali yakunlanmagan, sinxronik jihatdan o‘zgaruvchan variantlarni ko‘rsatadi.

Xulosa

Ushbu tahlil Sh.Rahmatullayev lug‘ati misolida metateza hodisasining o‘zbek (turkiy qatlam) leksikografik manbada qanday tarqoq va nomukammal tarzda aks etganini ko‘rsatdi. Misollarning tasnifi metatezaning kamida to‘rt turini (qo‘shni undosh, uzoq masofali/ko‘p bosqichli, unli-undosh, leksema darajasidagi) ajratish imkonini berdi. *Jekirma, o‘xsha, o‘pka, aylan, o‘laksa* kabi misollar lug‘at qamrovining chegaralarini ko‘rsatgan bo‘lsa, *tulki, timdala, sumbat* kabi misollar shu chegaraning nima uchun mavjudligini, ya’ni lug‘at faqat leksikalashgan, diaxronik jihatdan qat’iylashgan metateza holatlarini qamrab olishini asoslab berdi.

Shu bilan birga, ushbu tadqiqot faqat bitta til qatlami (turkiy so‘zlar) va bitta lug‘atviy manba doirasida amalga oshirilgani sababli xulosalar dastlabki va cheklangan xarakterga ega. Kengaytirilgan, ko‘p qatlamli korpus asosida metateza o‘zbek tili tarixiy fonetikasining mustaqil hamda tizimli o‘rganilgan bo‘limiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). – Toshkent: Universitet, 2000. -B. 600.
2. Mutallibov S. Metateza so‘zlar va ularning tarixi // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. – Toshkent, 1959.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. – B. 1036.
4. Rahimov S. O‘zbek tili Surxondaryo shevalari (fonetika, leksika). – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1985. – B. 98.
5. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1962. – B. 372.
6. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1971. – B. 409.
7. Blevins J., Garrett A. The evolution of metathesis // Phonetically Based Phonology. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
8. Hume E., Seyfarth S. Predicting metathesis: the ambiguity/attestation model // Origins of Sound Change: Approaches to Phonologization. – Oxford: Oxford University Press, 2013.